



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 312 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafoeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.....	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржоновна Мохира Илхомжон кизи	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
Artikbayeva Aziza Abror qizi	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
Esanova Maysara Umirovna	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
Feruza Yusupova Akildjanovna	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
Umarov Xusniddin	
Bo'lajak talabalarining individual yondashuv asosida kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish	138
Arslonova Gulsora Kurbonovna	
Ona tili darslarida til kompetentsiyasini kognitiv-semantik yondashuv asosida shakllantirish	142
Mo'minova Go'zalxon G'ulamjanovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	147
Maxliyo Turotova Erkin qizi	
Talabalarining kreativligini musiqiy-nazariy fanlar vositasida oshirish samaradorligi	153
Urinova Sabina Shuxrat qizi	
Imijning ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqini	160
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna	
Inklyuziv kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari	163
Abdubannobova Mahliyo Abdurashid qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional kompetentsiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	167
Abdurasulova Dilnoza Abdug'ani qizi	
Muxammas (taxmis) janrining o'zbek she'riyatidagi tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy poetik talqinlari	170
Avazova Sitara	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorining asosiy shakllari.....	173
Babayeva Dono Razzakovna, Erkinova Madinabonu Otabek qizi, Xolmatova O'g'li Tojiddin qizi	
Yangi taraqqiyot davrida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	177
Botirova Zohida Doniyor qizi	
Logoritmikada sportga asoslangan o'yinlar	180
Dilfuza Ochilova Zayniddinovna	
Jismoniy tarbiyaning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri (Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi asosida).....	184
Ibragimov Shuhratbek Iminjonovich	

Bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning zaruriyati	188
Karimova Feruzaxon Zakirovna	
Effective Techniques of Teaching Foreign Language Classes: a Sample of The 4CS Method	191
Khaitmuratova Zarina Sobirdjanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual imkoniyatlarini tabiat bilan tanishtirish orqali shakllantirish ..	193
Maxmudova Durdona Mirkarimovna	
O'quvchilarning kasbiy ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	196
Mutallibjonov Ma'rufjon	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibini to'g'ri tashkil etish	200
Muxtorova Mohira Ma'rufjon qizi	
Aksiologik yondashuv asosida altruistik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish	204
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
O'smirlarda agressiv xulq-atvorini psixologik o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari	207
Norqulova Dildora Shavkat qizi	
Raqamlashtirish jarayonida bo'lajak muhandislarni ishlab chiqarish-texnologik faoliyatiga tayyorlashning dasturiy-metodik ta'minoti	211
Nurov O'tkir Xudoyberdiyevich	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etilish	214
O'roqova Zilola Salomovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida amaliy tayyorgarlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.....	217
Qaramanov Obid Xudayberdiyevich	
Pedagoglar uchun sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari	221
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich	
Talabalarda psixologik moslashuvchanlikda refleksiya mohiyati va kognitiv qobiliyatni rivojlantirish samaradorligi.....	226
Ravshanova Nargiza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integrallashgan mashg'ulotlarni tashkil etish	230
S. Irisova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida marketing faoliyatini tizimli tashkil etishning nazariy asoslari	233
Sadikova Dilafuz Xusanovna, Qo'chqorova Munisa Anvar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini xalq ertaklari asosida rivojlantirish	237
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Abduraufova Muxayyo Xabibullo qizi	
Bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik yondashuv	241
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Sanoqulova Gulasal Nurillo qizi	
Sun'iy intellektni tibbiy oliy ta'lim o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qo'llash: innovatsion yondashuvlar va tajribalar	246
Toxirova Farida Olimjonovna	
Talabalarni estetik tarbiyalashda milliy xalq o'yinlaridan foydalanish modeli.....	251
Usarov Murodjon Mamarasul o'g'li	
Xalqaro kimyo olimpiadalariga o'quvchilarni tayyorlashda xalqaro baholash tadqiqotlariga asoslangan kreativ topshiriqlar va fanlararo integratsiyadan foydalanish metodikasi	254
Usmanov Baxtiyor Xabibullayevich	
Xoja (Sayyid Poshshoxoja ibn Abdulvahhobxo'ja) va uning asarlarining o'zbek nasridagi o'ri va ahamiyati.....	258
Valijonova Mahzunabonu	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvida diversifikatsiya: tizimli yondashuv va rivojlanish strategiyalari	261
Xakimova Sevara Shavkat qizi	
STEAM texnologiyasini nodavlat ta'lim tashkilotlarida ommalashtirishning ijobiy tomonlari.....	264
Xalokova Maksudaxon Ergashevna, Melnikova Zaynura	
Muhammad Sodik Qoshg'ariy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi.....	267
Moxira Niyozqulova Nuraliyevna	



Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (AQSh tajribasi).....	270
<i>Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi</i>	
Xalqaro baholash dasturlari mohiyati va ahamiyati	274
<i>Vohidova Ibodat Hurmatullayevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv	277
<i>Xujamiyarov Sa'dullo Choriyevich</i>	
Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	281
<i>Xusanova Dilraboixon Botiraliyevna</i>	
Talabalarning jismoniy tayyorgarligida suzish mashg'ulotlarining ta'siri	285
<i>Zuxriddin Nasibovich Boboshev</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadryatlar asosida tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	289
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Dadabayev Akramjon Askaraliyevich</i>	
Использование чат-ботов в образовательном процессе	294
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир кизи</i>	
Формирование гендерной культуры детей старшего дошкольного возраста в контексте государственной стратегии Узбекистана	298
<i>Намазбаева Лола Закировна, Тиллабаева Малика Хабибуллаевна</i>	
STEAM технологии в дошкольном образовании	302
<i>Садикова Дилафруз Хусановна</i>	
Системная модель социально-эмоционального обучения в Узбекистане: интеграция подходов, основанных на школьном образовании и партнерстве семьи и школы	307
<i>Санакулова Нигора</i>	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TA'LIM- TARBIYA JARAYONIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV

Xujamiyarov Sa'dullo Choriyevich

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası p.f.f.d (PhD), dotsenti

ORCID: 0009-0005-4202-9690



Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim va tarbiyaning innovatsion modellarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish, pedagog-tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash hamda tarbiyalanuvchilarning intellektual, estetik va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, shaxs, yondashuv, tarbiya, pedagog, boshqaruv, bola, tamoyil, mazmun, usullar.

Abstract: This article focuses on the development and implementation of innovative models of preschool education and upbringing, the preparation of educators for innovative activities, as well as the development of children's intellectual, aesthetic, and physical abilities.

Key words: education, personality, approach, upbringing, educator, management, child, principle, content, methods.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы разработки и внедрения инновационных моделей дошкольного образования и воспитания, подготовки педагогов к инновационной деятельности, а также развития интеллектуальных, эстетических и физических способностей детей.

Ключевые слова: образование, личность, подход, воспитание, педагог, управление, ребёнок, принцип, содержание, методы.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4312-son Qaroriga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi hujjat qabul qilindi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish va undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishda shaffoflik va samaradorlikni ta'minlash, shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish belgilab olindi.

Mazkur vazifalarning samarali hal etilishi o'z navbatida innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida yangi zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va amalda joriy qilish orqali mavjud dolzarb muammo va kamchiliklarni bartaraf etishni taqozo etadi. Shuningdek, zamonaviy talablar ta'lim jarayonini yaxlit tizim sifatida modernizatsiyalash hamda ta'limda innovatsion faoliyatni tashkil etish zaruriyatini ko'rsatmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Erkin va mustaqil fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodkor, milliy mafkuramizga sadoqatli bo'lgan intellektual salohiyatli barkamol shaxsni shakllantirish fan-texnika va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan ta'lim-tarbiya sohasida keng foydalanishni taqozo etadi. Ushbu muammo yechimini hal etishda jamiyatni rivojlantirish-

ning harakatlantiruvchi kuchi bo'lish, axborotlarni ishlab chiqish va ulardan rejalashtirilgan maqsadlarda samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etilishini ta'minlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu esa ta'lim jarayonini boshqacha yondashuv asosida ishlab chiqishni talab qiladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish orqali ushbu talablarni bajarish imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning nazariy asoslariga quyidagilar kiradi:

- ta'lim oluvchining ta'lim jarayonidagi o'rnini belgilash va shaxsni rivojlantirish;
- ta'lim oluvchining rivojlanishi bo'yicha me'yoriy talablar qo'yilishi, ushbu me'yorlarning Davlat talablarida o'z aksini topishi;
- ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogning ijodiy qobiliyati va mahoratining katta ahamiyatga egaligi;
- ta'lim jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash zarurati.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagogik ta'sirlar asosan ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirishga qaratiladi. Insonning tugal holatga kelmaganligi uning o'z ongini rivojlantirishida, refleksiyada, o'zini-o'zi anglab yetishda, o'ziga bo'lgan nuqtai nazarni o'zgartirish imkoniyatida hamda shu vositalar orqali o'z rivojini davom ettirishda namoyon bo'ladi. Insonparvarlik yondashuviga tayangan holda shaxs faol tizim sifatida talqin etiladi, ya'ni shaxs tashqi ta'sirlarga oddiygina javob beribgina qolmay, balki atrof-muhitga faol va maqsadga yo'naltirilgan tarzda ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ham ega. Shaxs sifatida yashash uchun inson dunyoga ijodiy munosabatda bo'lishi, unga nisbatan o'zining shaxsiy qarashlarini rivojlantirishi, o'z oldiga yangi vazifalar qo'yishi va ularni yangi usullar bilan yechishi kerak.

A. Maslou fikriga ko'ra, yangi qiziqishlarning paydo bo'lishi, bilimlarni egallash istagi va javobgarlik hissi hayot faoliyatining bunday barcha shakllari "ehtiyot motivatsiyasi" mavjudligidan dalolat beradi. Shaxsning asosiy xususiyatlaridan biri uning individualligi hisoblanadi, chunki har bir inson o'z o'rnida yakka va bebaho. Individuallik – "bu insondagi va uning ijodidagi eng qimmatli narsadir", u "hamma qo'lidan keladiganlarni hammaga yangi ish etalonini berib, hammadan ham yaxshiroq bajara olish ko'nikmasida namoyon bo'ladi".

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik texnologiyalarni bir-biridan farqlaydigan asosiy xususiyatlardan biri ularning bola shaxsiga yo'naltirilganlik darajasidir. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning markazida o'sib kelayotgan inson, uning o'z imkoniyatlarini to'la namoyon etishga intilishi, yangi tajribani qabul qilishi hamda turli hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda va mas'uliyat bilan qaror qabul qilishga qodirligi turadi. Shaxsni rivojlantirish jahon standartlari talablariga javob beradigan, o'ziga, boshqa insonga, jamiyatga, davlatga, tabiatga va mehnatga nisbatan to'g'ri munosabat bildiradigan, mustaqil faoliyat yuritadigan, ijodkor shaxsni tayyorlash, shuningdek, mustaqil ishlash va o'z-o'zini tarbiyalash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida amalga oshiriladi.

Shaxs rivojlanish psixologiyasi bo'yicha bilimlarga ega bo'lish va ulardan o'z faoliyatida samarali foydalanish, ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning akademik, didaktik hamda ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini bilish va shu ehtiyojlarni hisobga olgan holda mashg'ulotlarni tashkil qilish, bolalar bilan o'zaro ijobiy munosabatlarni o'rnatish olish, ta'lim texnologiyalari va o'qitish shakllarini puxta bilish, mashg'ulotlar jarayonida umumiy va shaxsga yo'naltirilgan qoidalarni ishlab chiqish olish hamda bu borada asoslangan tavsiyalar berish nihoyatda muhimdir. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi pedagogik jarayonda ta'lim oluvchiga "shaxsga yangicha qarash", ya'ni insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanib, bunda pedagogik jarayonda shaxs ob'yekt emas, balki sub'yekt sifatida qoraladi, har bir ta'lim oluvchi qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod sohibi ekanligi e'tirof etiladi hamda saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon kabi yuqori etik qadriyatlar shaxsning ustuvor xislatlari sifatida tan olinadi.

Maktabgacha ta'lim tizimi qayta qurila boshladi, ya'ni avtoritar tizimdan pedagogik jarayonni tashkil etishning shaxsga yo'naltirilgan modeliga o'tilmoqda. Ma'lumki, shaxsiyatning asosiy poydevori hayotning dastlabki yetti yilida qo'yiladi, bolaning maktabgacha yoshida shakllangan fazilatlar va fe'l-atvori keyinchalik tubdan o'zgarmaydi, faqat qisman tashqi ko'rinishi o'zgarishi mumkin. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv pedagog e'tiborini bolaning ajralmas shaxsiga qaratishni, ya'ni uning nafaqat intellektual qobiliyatlari va fuqarolik mas'uliyatini, balki hissiy, estetik va ijodiy moyilliklari hamda rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan ruhiy shaxsini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ta'limning asosiy qadriyati sifatida bunday yondashuvning e'tirof etilishi shaxsning o'ziga xos shakllanishini ta'minlaydi. Shu bois har bir bolaga uning individual xususiyatlari, hayotiy qadriyatlari va intilishlarini aniqlash asosida o'z rivojlanish yo'lini tanlash huquqini berish zarur.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda faollik markazida tarbiyalanuvchining o'zi, ya'ni bola shaxs sifatida, uning xohish-istaklari, niyatlari, maqsadlari va noyob hayotiy tajribasi turadi. Shu munosabat bilan ta'lim jarayoni "bilimlarni kattadan bolaga o'tkazish" modelidan voz kechib, bola tashabbuslari qo'llab-quvvatlanadigan va u ta'lim jarayonida faol ishtirok etadigan modelga yo'naltirilishi lozim. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi



bolani o'ziga xos shakllantirish uchun zarur bo'lgan o'zini-o'zi anglash, rivojlantirish, moslashish, boshqarish, himoyalash va tarbiyalash mexanizmlarini ta'lim jarayoniga joriy etishdan iborat. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli esa an'anaviy bolaga yo'naltirilgan intizomiy yondashuvni yengib o'tish, pedagoglarda bolalar bilan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashni taqozo etadi. Bola kattalar singari jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lganligi sababli uning huquqlarini tan olish, pedagogik pozitsiyani "yuqoridan" emas, balki yonma-yon va hamkorlikda olib borishni anglatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish hamda unda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab etilmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayon ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, pedagogik faoliyat ta'sirida tashkiliy jihatdan shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan tizimdir. Ushbu tizimni boshqarishda va uning sifatini yuqori pog'onaga yuksaltirishda yangi yo'llarni topish, ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda ma'naviy me'yor va qadriyatlarni shakllantirish, boshqa odamlar bilan muloqot qilish, hayotiy muhim vazifalarni hal qilishi zarur bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishni ta'minlash imkonini beruvchi muayyan kompetensiyalarga ega bo'lishi zarurligi belgilangan bo'lib, bolalarni kuzatishni amalga oshirish, bolalar rivojlanishining barcha sohalaridagi real o'zgarishlarni qayd etish maqsadida turli xil baholash strategiyalarini qo'llash pedagog egallashi lozim bo'lgan muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limning asosiy maqsadi bolani o'ziga xos shakllantirish uchun zarur bo'lgan o'zini-o'zi anglash, rivojlantirish, moslashtirish, boshqarish, himoya qilish va tarbiyalash mexanizmlarini ta'lim jarayoniga kiritishdan iborat.

Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim bizning ta'lim tizimimizga xos bo'lgan bolaga nisbatan faqat ta'lim va intizomiy yondashuvni yengib o'tishga, pedagoglarda bolalar bilan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga, shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalarni egallashga yo'naltirilgan jarayondir. Bola kattalar singari jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lganligi sababli uning huquqlarini tan olish, pedagogik pozitsiyani "yuqoridan" emas, balki yonma-yon va hamkorlikda egallashni anglatadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bolalarning real shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari amalga oshiriladigan, bolalar tomonidan shaxsiy tajriba va bilimlar samarali to'planadigan ta'lim muhitini yaratishni o'z ichiga oladi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tamoyillari va uning an'anaviy yondashuvdan farqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- o'zini namoyon qilish tamoyili, ya'ni har bir bolada o'zining intellektual, kommunikativ, badiiy va jismoniy qobiliyatlarini namoyon qilish ehtiyoji mavjud bo'lib, bolaning tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va rivojlantirish istagini rag'batlantirish hamda qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi;
- individuallik tamoyili, bunda bola shaxsiyatining individual shakllanishi uchun sharoit yaratish ta'lim tashkilotining asosiy vazifasi bo'lib, nafaqat bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, balki uning kelgusi rivojlanishiga har tomonlama hissa qo'shish nazarda tutiladi;
- subyektivlik tamoyili, ya'ni individuallik faqat subyektiv kuchlarga ega bo'lgan va ulardan faoliyat, aloqa hamda munosabatlarni qurishda samarali foydalana oladigan shaxslarga xos bo'lib, bolaga guruh hayotining haqiqiy subyektiv sifatida shakllanishi, shaxsiy tajribasini boyitish imkoniyatlarini yaratish zarur;
- tanlash tamoyili, chunki tanlovsiz bolaning individual xususiyatlari va subyektivligini rivojlantirish hamda qobiliyatlarini namoyon qilish mumkin emas, shu bois bola ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, shakllari va usullarini tanlashda subyektiv vakolatlarga ega bo'lgan sharoitda tarbiyalanishi pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqdir va aynan shu sababli maktabgacha yoshdagi guruhlarda ochiq rivojlantiruvchi muhit, ya'ni rivojlantirish markazlarini tashkil etish zarur;
- faoliyat, ijodkorlik va muvaffaqiyat tamoyili, bunda bolani muvaffaqiyatga undash, uning faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish maqsadida o'yin faoliyatiga keng jalb etish, o'yin va samarali faoliyat jarayonida ijodkorlikka maksimal darajada yo'naltirish, shaxsiy va jamoaviy ijodiy faoliyat orqali bolaning individual xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ijodkorlik bola qobiliyatlarini ochib berib, uning "Men" konsepsiyasining shakllanishiga xizmat qiladi;
- ishonch va qo'llab-quvvatlash tamoyili, ya'ni pedagogik faoliyatni insonparvarlik va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari bilan boyitish, bolaga ishonch bildirish, o'zini-o'zi anglash va o'z "men"ligini namoyon etish intilishlarini qo'llab-quvvatlash, ortiqcha talablar va haddan tashqari nazoratdan qochish zarur, chunki tashqi ta'sirlardan ko'ra ichki motivatsiya ta'lim va tarbiya samaradorligini belgilaydi;



- farqli yondashuv tamoyili esa tarbiyalanuvchilarning psixofizik, shaxsiy qobiliyatlari va imkoniyatlarini ochishga yo'naltirilgan maxsus pedagogik vaziyatlarni yaratish orqali bolaning tabiati, sog'ligi, aqliy va jismoniy rivojlanish xususiyatlari, qobiliyat va moyilliklariga mos holda rivojlanishini ta'minlaydi.

Mazkur tamoyillarni amalga oshirish umumiy psixologik makonni yaratishni, ta'lim jarayonini o'yin faoliyati orqali tashkil etishni, bolalar bilan ishlashning samarali shakllari sifatida munozaralar, suhbatlar, qo'shma kuza-tuvlar va eksperimentlarni yo'lga qo'yishni o'z ichiga oladi. Tarbiyachining oldiga qo'yilgan asosiy vazifa esa samarali muloqot tamoyillaridan ongli va tizimli foydalanishdan iborat.

XULOSA

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalariga nisbatan bolaning shaxslik, intellektual va kasbiy rivojlanish maqsadlarining ustuvorligi, uning yutuq va muvaffaqiyatlariga motivatsiyasi, individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilganligiga urg'u berish, o'zligini shakllantirish, ta'lim ishtirokchilarining o'zaro sheriklik harakatlari, bolalarga tanlash erkinligini berish hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga qabul qilingan qarorlar uchun shaxsiy mas'uliyat yuklash, ta'limiy vaziyatlar va voqelikni shaxsiy tajriba orqali o'zidan o'tkazish hamda hissiy munosabatlarning mavjudligi kabi belgilar qo'llaniladi.

Bolaga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xosligi shundaki, bola kimningdir istagi yoki buyurmasiga ko'ra emas, balki o'z imkoniyatlari, salohiyati va tabiiy xususiyatlariga mos ravishda shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4646908>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-79-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6476175>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-5179335>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/4333062?ON-DATE2=26.01.2024&action=compare>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdagi "Reabilitatsiya markaziga ega bo'lgan davlat ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 510-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-5574859>
7. Omonovich, K. D., Umirovich, A. O., Norqobilovna, J. S., Abdukunduzovna, B. G., Choriyevich, X. S. D., Jurakobovich, T. S., ... & Adashvoevich, K. R. (2025). Teaching methodology of historical geography through geospatial and immersive technologies completed with bibliometric analysis. *Journal of Engineering Science and Technology*, 20(6), 1935-1942.
8. Nafisa, A., Nargiza, M., Sadulla, K., & Dilmira, S. (2020). Development of independence, initiative and responsibility for preschool children in the process of approaching accessible labor activity. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 785-786.
9. Choriyevich, X. S. (2025). Organization of work forms in partnership with preschool education and family. *Shokh Library*.
10. Choriyevich, K. S. (2020). The development of vocabulary in children of middle preschool age through role-playing games. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(1).
11. Choriyevich, X. S. D. (2025). Bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini tashkil etishning pedagogik jihatlari. *Scientific and Methodological Journal of the Tashkent Institute of Economics and Pedagogy*, 2(1), 134-142.
12. Xojamiyarov, S. (2025). The role of cooperation of teachers, educators and parents in developing a sense of responsibility in preschool children. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 3(1), 87-93.
13. Xo, S. C., Nazarova, R. R., & Ibragimova, G. X. (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalarda ertak terapiya asosida mas'uliyat hissini shakllantirish. *Academic Research in Educational Sciences*, (1), 96-99.
14. Хужамияров, С. Ч. Формирование этических представлений детей старшего дошкольного возраста в игровой деятельности. *Научные исследования*, 29.
15. Maktabgacha ta'lim vazirining 2021-yil 12-iyuldagi "Maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi 128-sonli Buyrug'i.
16. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi "MTT pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 99-sonli Buyrug'i.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.